


## SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr \*)

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 11 994,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 6,0 % ga oʻsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1374,2 mlrd. soʻmni (oʻsish surʻati 135,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʻektlarining tovar aylanmasi 10 620,4 mlrd. soʻmni (oʻsish surʻati 103,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1532,0 mlrd. soʻm (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 92,1 %)ni tashkil etdi.


### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. soʻm)



2018-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining oʻsish surʻatlari kuzatilib, nisbatan yuqori oʻsish surʻatlari Kattaqoʻrgʻon shahar hamda Jomboy, Narpay, Samarqand, Payariq va Qoʻshrabot tumanlarida qayd etildi.

\*-dastlabki maʼlumot

**Chakana savdo tovar aylanmasining o‘shish sur‘atlari, (%)**  
(2019-yil yanvar-noyabr)





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 35,1 % ga o‘tdi va 1374,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,5 % ulushiga to‘g‘ri keldi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 10 620,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 3,1 % ga o‘tdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,5 % ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)**


2018-yil yanvar-noyabr

2019-yil yanvar-noyabr



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari

**Chakana savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, (%)**  
(2019-yil yanvar-noyabr)




Tahlil natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9 %), Nurobod (99,5 %), Bulung'ur (99,4 %), Qo'shrabot (99,3 %) va Paxtachi (99,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 11,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (30,8 %), Samarqand tumanida (34,8 %) va Pastdarg'om tumanida (5,1 %) kuzatildi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hamda yirik korxonalar  
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**  
(2019-yil yanvar-noyabr)


Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 374,2</b>	<b>135,1</b>	<b>10 620,4</b>	<b>103,1</b>
Samarqand shahri	990,8	149,9	2227,0	88,4
Kattaqo'rg'on shahri	1,0	69,9	704,6	108,3
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur	4,1	-	674,6	106,4
Jomboy	4,0	-	355,5	108,3
Ishtixon	13,1	-	507,1	105,2
Kattaqo'rg'on	6,1	-	510,1	106,1
Narpay	4,7	-	434,8	107,9
Nurobod	2,5	-	469,7	106,8
Oqdaryo	4,8	-	267,4	105,0
Payariq	6,6	-	460,8	107,0
Pastdarg'om	47,3	65,2	875,5	112,0
Paxtachi	4,2	-	427,4	106,3
Samarqand	242,2	90,2	453,3	122,8
Tayloq	4,3	-	348,6	106,5
Urgut	35,4	3,1 m.	1498,5	105,8
Qo'shrabot	3,0	-	405,5	107,7

**Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**  
(2019-yil yanvar-noyabr)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari chakana savdo tovar aylanmasi hajmi yuqori bo'lgan Samarqand shahri 2 227,0 mlrd. so'm, Urgut tumani 1 498,5 mlrd. so'm, Pastdarg'om tumani 875,5 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on shahri 704,6 mlrd. so'm, Bulung'ur tumani 674,6 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on tumani 510,1 mlrd. so'm, Ishtixon tumani 507,1 mlrd. so'm va Nurobod tumani 469,7 mlrd. so'mlik hajm bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasida  
shahar va tumanlarning ulushi, (%)**  
(2019-yil yanvar-noyabr)



2019-yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 3 133,4 ming. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 % ga ko'paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (7 964,6 ming. so'm), Samarqand shahri (5 942,3 ming. so'm) va Bulung'ur tumani (3 686,7 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Oqdaryo (1 738,0 ming. so'm), Tayloq (1 785,6 ming. so'm) va Payariq (1 898,3 ming. so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

(2019-yil yanvar-noyabr)

Hududlar nomi	Ming. so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3 133,4</b>	<b>103,8</b>
Samarqand shahri	5 942,3	99,5
Kattaqo'rg'on shahri	7 964,6	106,6
<i>tumanlar:</i>		
Bulung'ur	3 686,7	104,9
Jomboy	2 124,5	106,6
Ishtixon	2 084,4	105,5
Kattaqo'rg'on	1 919,3	105,2
Narpay	2 092,1	107,1
Nurobod	3 190,5	105,2
Oqdaryo	1 738,0	105,0
Payariq	1 898,3	106,1
Pastdarg'om	2 646,3	105,8
Paxtachi	3 032,6	105,3
Samarqand	2 803,4	106,6
Urgut	3 073,4	104,7
Tayloq	1 785,6	105,4
Qo'shrabot	3 159,9	106,1

2019-yilning yanvar-noyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,2 % ni tashkil etib, 269,5 mlrd. so'mga yetdi, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,5 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


**Samarqand viloyatining  
ulgurji savdo tovar aylanmasi  
(2019-yil yanvar-noyabr\*)**

Joriy yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 836,2 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 6,4 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra 3 432,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,6 % ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 71,0 % ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 1403,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,2 % ga o'sdi.


**Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar hamda  
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, (%)**

2018-yil yanvar-noyabr



- Yirik korxonalar
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

2019-yil yanvar-noyabr



- Yirik korxonalar
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

\*-dastlabki ma'lumot

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
'Tel.:71-230-85-23  
66-235-65-80**